

INGLIZ TILI SIYOSIY LEKSIKOGRAFIYASI, SHAKLLANISH, RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Qosimova Gulxumor

O'zbekiston Davlat Jahon Tillar Universiteti

2 kurs Magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7885992>

XXI asr boshi inson hayotining barcha sohalarida sezilarli o'zgarishlar davri sanaladi. Globallashuv hodisasi butun dunyo iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy integratsiyasini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu birlashuv jarayoni ingliz tilini xalqaro terminologiya standartlari va uning boshqa fan sohalaridagi tarjimasini ishlab chiqish borasida asosiy qurolga aylantirdi. Til va u bilan birga uning leksikografik ma'lumotnomalari jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni aks ettiradi.

Siyosat sohasida lingvistik ma'lumotlarni sharhlash va tahlil qilish bilan siyosiy lingvistika (Political Linguistics) shug'ullanadi, terminografiya esa ma'lumotlar bazasi va lug'atlardan olinganlarni tavsiflaydi va tizimga kiritadi. Bu esa umumiy va maxsus siyosiy lug'atlarni o'rganishga bag'ishlangan leksikografiya tadqiqotlari hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiya korpusini o'z ichiga olgan lug'atlar, undan tashqari ma'lumot manbasi sifatida muayyan amaliy muammolarni hal qiladigan terminologik qo'llanmalarning yangi turini tuzish, ijtimoiy-siyosiy media matnlarini elektron korpusi materiallari, shuningdek, leksikografiya alohida sohasi – Siyosiy Leksikografiyadagi ijtimoiy-siyosiy leksikasi tavsiflash tamoyillarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot maqsadi – siyosiy leksikografiya nuqtai nazaridan ingliz tilidagi ijtimoiy-siyosiy atamalarga tavsif berish va ijtimoiy-siyosiy mavzular haqidagi media matnlarga asoslanib, yangi turdagi ijtimoiy-siyosiy terminologiya ikki tilli lug'ati konseptsiyasini taklif qilish.

Tadqiqot dolzarbligi esa ijtimoiy-siyosiy hayot ahamiyati oshib borishini, til va siyosatning o'zaro ta'siri haqidagi nazariy ishlar hamda ijtimoiy-siyosiy sohaning maxsus terminologiyasi lug'atlari va ular ustida olib borilgan amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurroq o'rganishdir.

Tadqiqotda to'ldirilgan anketa natijalariga ko'ra, atama ma'nosini tildagi mavjud ekvivalent bilan birga yaratish uchun o'quvchiga ekstralingvistik ma'lumotlar, qo'shimcha izohlar va vaziyatli kontekstlar kerakligi aniqlandi.

Tadqiqot olib borishda ingliz, rus va o'zbek tilidagi ko'plab qog'oz va onlayn leksikografik ma'lumot resurslari, ijtimoiy-siyosiy atamalari haqidagi maqolalar, siyosiy munosabat to'g'risidagi materiallar, siyosiy va ommaviy axborot vositalari matnlari, tarjima nazariyasi va amaliyoti haqidagi ishlar ko'zdan kechirildi.

References:

1. Orwell, George (2006). Politics and the English Language. Peterborough: Broadview Press.
2. Manik S.A. Evaluation Component within the Semantic Structure of SocioPolitical Words // Multi-disciplinary Lexicography: Traditions and Challenges of the XXIst Century / Ed. by O. Karpova, F. Kartashkova. Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2013. P. 231-244.
3. Маник С.А. Культурологический компонент в семантической структуре

общественно-политической лексики (на материале английского языка)// Современная лингвистика и межкультурная коммуникация: монография. Красноярск, 2012. с.153 - 178.

4. Маник С.А. Неологизмы vs неологизмы в английской общественнополитической терминологии // Ученые записки Национального общества прикладной лингвистики. - М.: НОПриЛ, 2016. - С.57-63.

5. Маник С.А. Принципы лексикографического описания общественнополитической лексики в двуязычном словаре // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. Филология и искусствоведение. Научный журнал №2(2). - Киров, 2010. - С.78-85.